SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

## 2022- YIL YANVAR-NOYABR
## (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 66-235-06-80

www.samstat.uz

# Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-noyabr oylarida)*

Dastlabki ma'lumotlaga ko'ra 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 25 210,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi[1] 109,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,0 % ni tashkil etdi.

**0,9%** — **B** — Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**96,0%** — **C** — Ishlab chiqaradigan sanoat

**2,5%** — **D** — Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**0,6%** — **E** — Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI[1] % da

| | 2021- yil yanvar-noyabr | 2022- yil yanvar-noyabr |
|---|---|---|
| B | 54,9 % | 76,3 % |
| C | 111,2 % | 108,8 % |
| D | 104,6 % | 118,5 % |
| E | 121,4 % | 114,5 % |

*[1]Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan sanoat – 8,8 %, o‘sishi kuzatildi.*

*Shuningdek, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning– 18,5 % ga, Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish – 14,5 % ga o’sish hamda Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 23,7 % ga pasayish kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

**Yanvar-noyabr**

2022- yil
232,1 mlrd. so‘m

2022- yil
76,3 %

2021- yil
172,2 mlrd. so‘m

2021- yil
54,9 %

2020- yil
132,8 mlrd. so‘m

2020- yil
87,1 %

B

*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 232,1 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**

2021- yil
B
0,9 %

2022- yil
B
0,9%

**Yanvar-noyabr**

## Ishlab chiqaradigan sanoat




*2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24 191,6 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,0 % ini tashkil etdi.*

**2021-yil yanvar-noyabr** 95,5 %

**2022-yil yanvar-noyabr** 96,0 %

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2021- yilning yanvar-noyabr oylarida – 0,4 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 16,3 % (16,3 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 19,6 % (16,1 %) va quyi texnologiyalisi – 59,4 % (62,7 %)ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 4,2 % (2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 93,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 11,6 % (2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 140,0 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 21,3 % (2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 95,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 38,8 % (2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 114,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,1 % (2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 19,5 %) ni tashkil etdi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

### Aroq ming litr 100% spirt

| | |
|---|---|
| 2022 | 46,5 |
| 2021 | 100,5 |
| 2020 | 53,0 |

### O‘simlik yog’i (tozalangan)

| | |
|---|---|
| 2022 | 126,0 |
| 2021 | 122,0 |
| 2020 | 85,8 |

### Paxta tolasi

| | |
|---|---|
| 2022 | 110,3 |
| 2021 | 130,8 |
| 2020 | 214,6 |

### Tamaki

| | |
|---|---|
| 2022 | 113,1 |
| 2021 | 84,5 |
| 2020 | 94,9 |

### Pivo

| | |
|---|---|
| 2022 | 100,3 |
| 2021 | 91,0 |
| 2020 | 104,6 |

### Yumshoq bug‘doy va spelta uni

| | |
|---|---|
| 2022 | 94,3 |
| 2021 | 97,4 |
| 2020 | 99,3 |

### Paxta tiviti

| | |
|---|---|
| 2022 | 91,5 |
| 2021 | 226,8 |
| 2020 | 147,9 |

### Birinchi navli un

| | |
|---|---|
| 2022 | 111,4 |
| 2021 | 94,1 |
| 2020 | 84,0 |

### Konyak

| | |
|---|---|
| 2022 | 41,5 |
| 2021 | 269,6 |
| 2020 | 148,1 |

*2022- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda Aroq – 117,5 ming litr 100 % spirt (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 46,5 % ga pasaygan), 149,3 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (5,7 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-noyabr | 2022- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t. | 158,4 | 149,3 | 94,3 |
| Paxta tolasi, ming t. | 39,8 | 43,9 | 110,3 |
| Tozalangan paxta yog‘I tonna. | 14924,0 | 15055,0 | 100,9 |
| Кonyak spirti – litr 100 % spirt | 645,6 | 268,0 | 41,5 |
| Birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni og‘irligi 600 g (buxanka), tonna. | 501,8 | 558,8 | 111,4 |

## Metallurgiya sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 7,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 210,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa,*
*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 11,6 % gacha ko‘tarilib, fizik hajm indeksi esa, 140,0 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 2 810,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 1,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 90,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa,*
*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 120,5 % ga o’sgan va ishlab chiqarish hajmi 568,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa,*
*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,0 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 103,2 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 6 784,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 119,8 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 92,0 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 990,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

2021- yil 119,8 %

2022- yil 92,0 %

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021 yil 132,4 %

2022- yil 113,6 %

*2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 132,4 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 %, fizik hajm indeksi 113,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 652,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 31,5 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 89,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 230,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

2021- yil 31,5 %

2022- yil 89,4 %

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 623,2 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,5 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 118,5 % ni tashkil etdi.




### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-noyabr | 2022- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 408253,7 | 471270,1 | 63016,4 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 5945871 | 5370059 | -575812 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 164,0 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-noyabr | 2022- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 36 564,7 | 35 511,4 | -1 053,3 |
| **Plastmassa chiqindilari, tonna** | 411,5 | 929,9 | 518,4 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mlrd.so‘m** | 94,3 | 93,3 | -1,0 |

Suvga ishlov berish va suv quvurlarini taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 98,9 % ni va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar – 1,1 (%.) ga kamayganligi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 15 587,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 119,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 61,8 % ni tashkil etdi.*

### Oziq-ovqat mahsulotlari

**2021- yil yanvar-noyabr** — **38,2%**

**2022- yil yanvar-noyabr** — **35,4%**

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

**2021- yil yanvar-noyabr** — **61,8%**

**2022- yil yanvar-noyabr** — **64,6%**

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,2 % (2021- yil yanvar-noyabr oylarida 1,2 %)ni tashkil etdi.*

*Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib 39,4 % ni, Tayloq tumani 11,5 % ni, Urgut tumani 10,4 % ni, Jomboy tumani 8,1 % ni, hamda Samarqand tumani 8,0 % ni tashkil etdi.*

*Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (119,3 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Paxtachi tumanida (149,9 %) hamda Tayloq tumanida (180,6 %) qayd etildi.*

## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib 39,4 % shuningdek, Tayloq 11,5 %, Urgut 10,4 % ni, Samarqand tumanlarida 8,0 % ni tashkil etdi.*




**12 515,6** mlrd. so‘m

*2021- yil yanvar-noyabr*

**15 587,1** mlrd. so‘m

*2022- yil yanvar-noyabr*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2021- yil** 110,6 %

**2022 yil** 119,3 %

## Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib, 43,2 % shuningdek, tumanlardan Urgut 14,3 %, Tayloq 11,5 % ni, hamda Samarqand tumani 3,5 % ni tashkil etdi.*

**7 739,3** *mlrd. so‘m*

*2021- yil yanvar-noyabr*

**9 879,0** *mlrd. so‘m*

*2022- yil yanvar-noyabr*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

2021- yil 106,5 %

2022- yil 119,3 %



## Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib, 32,6 % ni, shuningdek, Samarqand tumani 16,1 % ni, Jomboy tumani 15,4 % ni, Tayloq tumani esa 11,3 % ni tashkil etdi.*




*4 625,3 mlrd. so‘m*

*2021- yil yanvar-noyabr*

*5 523,3 mlrd. so‘m*

*2022- yil yanvar-noyabr*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

02 — 2021- yil — 120,1 %

04 — 2022- yil — 119,6%

## Samarqand viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 46,7 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 10,7 % ni, Urgut tumani esa 7,3 % ni tashkil etdi.*

### Samarqand viloyati

**2021 yil**

19 785,8 mlrd. so'm

**2022- yil**

25 210,9 mlrd. so'm



**2021- yil** 110,2 %

**2022- yil** 109,0 %

| | FHI, % da | mlrd. so'm |
|---|---|---|
| Kattaqo'rg'on sh. | 103,0 | 365,1 |
| Samarqand sh. | 111,5 | 11 764,6 |
| Toyloq | 120,2 | 2 000,3 |
| Urgut | 107,0 | 1 844,7 |
| Nurobod | 123,3 | 413,6 |
| Samarqand | 101,7 | 1 668,4 |
| Paxtachi | 114,0 | 497,0 |
| Pastdarg'om | 110,3 | 890,8 |
| Payariq | 98,3 | 388,1 |
| Narpay | 104,8 | 594,6 |
| Qo'shrabot | 98,8 | 74,0 |
| Kattaqo'rg'on | 98,2 | 476,1 |
| Ishtixon | 102,2 | 508,0 |
| Jomboy | 103,5 | 2 690,4 |
| Bulung'ur | 111,3 | 592,1 |
| Oqdaryo | 98,6 | 443,1 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9 289,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 36,8 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulung‘ur tumanida (100,0 %), Qo‘shrobot tumanida (100,0 %), Kattaqo‘rg‘on shahrida (95,9 %), Oqdaryo tumanida (96,1 %), Kattaqo‘rg‘on tumanida (75,7 %) tashkil etdi.

Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Narpay tumanida(16,1 %), Paxtachi (26,3 %), Ishtixon (28,9 %), Tayloq (29,3 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



## Samarqand vloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*Bugungi kunda viloyatimizda 8 817 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1 799 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 20,4 %) Samarqand shahriga, 1 269 tasi (14,4 %) Urgut tumaniga, 805 tasi (9,1 %) Samarqand tumani hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.*




### Jami yangi tashkil etilgan

**2021- yil** — 1 806 dona

**2022- yil** — 1 561 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

**2021- yil** — 7 991 dona

**2022- yil** — 8 817 dona